



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

	O‘zbek va qozoq tillaridagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida qo‘llanilgan qarindoshlik ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar.	
15	Mohinur USMONOVA, O‘zbek va qozoq xalq ertaklaridagi turg‘un birikmalarning qiyosiy tahlili	541
16	Hayotxon SALAYEVA, Gurlan (Xorazm) shevasida polizchilikka oid xalq leksikasi xususida	544
17	Mufassal PARDAYEVA, Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarining dastlabki variantlarida Ahmad Sardor obrazi	547
18	Серик ТУРПАНАЛИЕВ, Қабдеш жұмаділов прозасындағы төл тілдің көркемдік сипаты	551
19	Amina DEHQONOVA, O‘zbek va nemis ertaklarida xalqona an‘analar	554
20	Dilrabo KOMILOVA, Yangibozor (Xorazm) shevasidagi kiyim-kechak savdo-sotig‘ida ishlatiladigan so‘zlar	558
21	Mohinabonu YUNUSOVA, Toshkent viloyati uyg‘ur shevalarining ayrim leksik xususiyatlari	561
22	Marjona MUSULMONOVA, Boysun tumani bog‘dorchilik leksikasi	565
23	Barchinoy TOSHPO‘LATOVA, Samarqand bolalar folklorining janrlar tarkibi	565
24	Moxlaroyim NAZAROVA, Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida etnografik folklorizmlarning badiiy-estetik talqini	574
25	Fotima KOMILOVA, O‘zbek-turk qarg‘ishlarning mifopoetik talqini	576
26	Shohsanam NOMAZOVA, Dostonlarda obrazlar tizimi masalasi va “Sanamgul” dostonidagi obrazlar	580
27	Muhtarama MAMITOVA, Oila mavzusi bilan bog‘liq ayrim o‘zbek va turk maqollarining tipologik tahlili	583
28	Lobar QULDASHEVA, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning pedagogik ahamiyati	587
29	Sunbula HABIBULLAYEVA, “Shirin va Shakar” dostonida fonetik dialektizmlarning o‘rni (qo‘llanishi)	590
30	Nilufar TURG‘UNOVA, Sirdaryo viloyatidagi Andijon shevalarining fonetik morfologik xususiyatlari	594
31	Sarvinov RAXIMOVA, G‘ijduvon sandiqsozlik so‘zlari	597
32	Aziza ELMIRZAYEVA, Usmon azim lirikasida folklor va badiiy ko‘chim uyg‘unligi	599
33	Diyora NE‘MATOVA, Folklorida til va leksika masalasi: lingvofolkloristik tadqiqotlar tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlar	605
34	Hanifa XODJIYEVA, Mavsumiy marosimlar tasnifi	611
35	Husniddin AZIMJONOV, Tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unligida bilga xoqon obrazi	614
36	Sitora O‘KTAMOVA, Hajv tushunchasining etimologiyasi va falsafiy-estetik mohiyati	617

GO'RO'G'LI TURKUM DOSTONLARINING DASTLABKI VARIANTLARIDA
AHMAD SARDOR OBRAZI

THE IMAGE OF AHMAD SARDAR IN THE EARLY VERSIONS OF THE GO'RO'G'LI
EPIC CYCLE

Mufasssal PARDAYEVA,
TOSHDOTAU magistranti
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/DYSL6350

Annotation. *This article analyzes the image of Ahmad Sardor, one of the significant characters in the Go'ro'g'li epic cycle. The research explores how Ahmad Sardor is interpreted in different variants and versions of the epic, as well as the development of his relationship with Go'ro'g'li, particularly within the framework of "uncle-nephew" and "father-son" relationships. The article highlights Ahmad Sardor's qualities as a kind, generous, responsible, and wise person through the events of the epic. In addition, his character is examined more deeply through episodes related to Ravshanbek, Urayxon, and Rayhon Arab. The study reveals that in the earliest variants of the epic, Ahmad Sardor was mainly portrayed as an educator, patron, and fatherly figure, while in later versions his image underwent certain changes. This character occupies an important place in the artistic system of the Go'ro'g'li epic and is evaluated as one of the leading figures reflecting epic traditions and social values.*

Key words. *Ahmad Sardar, Go'ro'g'li, positive character, early epics, uncle, patron, mentor, leading hero, epic analysis, system of characters.*

"Go'ro'g'li" turkumini tashkil etuvchi dostonlarning kattagina qismi Go'ro'g'lining asrandi farzandlari Avazxon va Hasanxon, ularning farzandlariga ba g'ishlangan epik asarlar tashkil etib, Avazxon qatnashgan dostonlarning ayrimlarida Ahmad sardor obrazini uchratamiz va ushbu obrazlar bevosita va bilvosita sarguzasht qahramonlari sifatida kuylanadi. "Go'ro'g'li" turkum dostonlarida Ahmad sardor obrazi turli xil qiyofalarda gavdalanadi. Dastlabki doston variantlarida u qirq yigitga sardor, befarzand ota, Go'ro'g'lining tutungan otasi sifatida tasvirlanadi.

Go'ro'g'li Shohdorxon yurtidan yetti yoshida qaytgach, vaziyat boshqacha tus oladi. Gajdumbek Go'ro'g'lining o'ziga hamda Urayxon va Ahmadbeklarga jiyan ekanligiga guvoh sifatida keladi (Go'ro'g'lining Taka va Yovmit hukmdor tabaqasiga teng darajada jiyanligi uning butun Taka-Yovmit yurtiga hukmdor bo'lishini ta'minlar edi). Natijada Ahmadbek Go'ro'g'lini tutingan o'g'il sifatida qabul qilib, tarbiyachi rahnamoga aylanadi. Urayxonning o'limi hamda Gajdumbekning doston voqealaridan izohsiz chiqib ketishi Go'ro'g'lining Taka Yovmit eliga bosh bo'lishini o'zsiz ta'minlaydi. "Go'ro'g'li" turkumiga kiruvchi boshqa versiya va variantlar, xususan, dostonning "g'ayritabiiy homilali" versiyalarida vaziyat bu tartibda murakkab k o'rinish olmagan. Go'ro'g'li Ahmad Sardorning singlisining o'gli va u to'gridan to'g'ri Ahmad sardor xonadoniga tushib urug' qabila an'anasida belgilangan o'rinni egallaydi. Mavjud tahdillardan ham ko'rinib turibdiki, dostondagi "tog'a-jiyan" yo'nalishi real ota yo'nalishidan ko'ra qadimiy bo'lib, eposlik tayanch yo'nalishlaridan biri ekan va Ahmad Sardor obrazi - tarbiyachi, raqib sifatida ilk bobo syujetning aynan tarbiyachi va raqib yo'nalishi asosida shakllanib, to'la badiiy-estetik jilosini olgan [Турдимов Ш., 2011: 141].

"Zargarning shahridan kelganimga sakkiz yil o'tdi. Barakalla Ahmadbekka, mening qadrimga o'sha yetdi. Urayxon podshoning oldidan umidim uzilib, noumid bo'lib chiqib edim. Meni yetalab Registonga olib kelib, shu saroyi bo'yi baravarli zarga sotib olib, qozi-kalonlarga ziyofatlar qilib, mening otimga vasiqa qilib, bozordan oltita yaxshi g'ulombachcha sotib olib kelib, o'lganingcha shu Ravshanbekning aytganini qilasan, aytganini qilmasanglar sizlarni dorga tortib o'ldiraman, deb menga xizmatkor qilib berib ketdi. Shundan beri umrim shu bilan o'tdi.

Men Ahmadbekdan roziman, ammo podshoning oldiga bormayman, Urayxon podshoga men endi qarindosh b o'libman-mi, yetti-sakkiz yillardan beri meni bir yo'qlagani yo'q edi. Ota, deb enasining ichida qolgan farzandim kelibdi. Har yigirma kunda, Gajdumbekdan xabar kelib yotdi. Urayxon podsho shu yerda turib, mendan bir xabar olgan yo'q, endi chaqirganini bir pulga olmayman, dedi"[Go'ro'g'lining tug'ilishi. Doston, 2021: 105].

Yuqoridagi nutq Ravshanbekka tegishli bo'lib, Yovmitga qaytganida podshoh Urayxon emas Ahmadbek yordam qo'lini cho'zganini takidlab o'tgan. Ahmad sardor Ravshanbekka saroy, oltita yaxshi g'ulombachalar olib xizmatkor qilib beradi va Ravshanbek o'z nutqida Ahmad sardordan roziligini aytadi. Bu o'rinda Ahmad sardor o'z jigarining o'g'lini tashlab qo'ymaganini unga yordam berganini ko'rishimiz mumkin. Ahmad sardorning qo'li ochiq, saxiy inson kabi xarakteri shu voqeada namoyon bo'ladi.

Ahmadbek ziyofat ustida hamma yig'ilgan katta-kichik oldida, Go'ro'g'lini o'g'il qilmoqchi bo'ldi, qo'liga bir ilik olib, Go'ro'g'liga bermiqchi bo'lib, bir so'z dedi:

*Endi bo'lg'in ko'nglimning havasi,
Duo qil, topilsin davlatning davosi,
O'lganim so'ng, otam deb tayoq ushla,
O'zing bo'lg'in davlatimning egasi!*

*Qo'llagay yigitni piri- g'oyibi,
Ahmadbekning elda ko'pdi ayibi.
Qiyomatlik o'g'lim dedim men seni,
Otamlab, bo'l davlatimning soyibi!*

*Befarzandman, doim kuydim hasratga,
Askar g'ayrat bilan minadi otga.
O'zing bo'lg'in hovlilarning egasi,
Otam deb obborib qo'ygin lahatga!*

Bu so'zni Ahmadbekdan eshitib, Urayxon podshodan boshqa, hamma o'ltirganlar joyidan turdi. Hammalari: E. Ahmadbek, o'g'il ham, to'y ham qutlug' bo'lsin! - dedilar. Ahmadbek: Qulluq, dedi. Urayxon podsho ham xalq qatori Ahmadbekka o'g'il qutlug' bo'lsin, to'y qutlug' bo'lsin qildi. Ahmadbek qulluq, dedi[Go'ro'g'lining tug'ilishi. Doston, 2021: 110].

Bu parcha "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonidagi voqealardan biri bo'lib, unda Ahmadbekning Go'ro'g'lini o'g'il qilib olish marosimi tasvirlanadi. Ziyofat paytida katta-kichik hamma yig'ilgan joyda Ahmadbek Go'ro'g'lini o'ziga qiyomatlik o'g'il qilib olmoqchi bo'ladi. U qo'liga ilik (go'sht bo'lagi) olib, uni Go'ro'g'liga uzatib so'zlaydi. Bu qadimiy odat bo'lib, kimnidir o'g'il qilib olish yoki hurmat ko'rsatish ramzi hisoblanadi. Ahmadbekning farzandsiz ekanini aytadi va bundan doim g'am chekkanini bildiradi. Go'ro'g'lini o'z o'g'li va merosxo'ri deb e'lon qiladi. O'lgandan keyin "otam" deb tayoq ushlab yuradigan, ya'ni farzandlik burchini bajaradigan kishi b o'lishini so'raydi. Davlatini, mol-mulki va hokimiyatini Go'ro'g'liga topshirishini aytadi. Uning sharafiga qirq kunlik to'y qilmoqchi ekanini bildiradi. Bu gaplarni eshitib, majlisda o'tirganlarning hammasi (faqat Urayxon podshodan tashqari) o'rnidan turib: "Ahmadbek, o'g'il ham, to'y ham qutlug' bo'lsin!" deb tabriklaydi. Keyin Urayxon podsho ham xalq qatori Ahmadbekni tabriklaydi.

Bu epizodda befarzandlik dardi, Qahramonning hurmati va obro'si, Ota-o'g'il munosabatlari ko'rsatiladi. Ahmadbek Go'ro'g'lini nafaqat o'g'il, balki davlatining davomchisi sifatida ko'radi.

– Ahmadbek farzandsiz bo'lgani uchun doimo hasrat chekadi. Shu sababli u Go'ro'g'li ni o'ziga o'g'il qilib olishni xohlaydi. Bu uning mehribon va oilani qadrlaydigan inson ekanini o'rsatadi.

– U Go‘ro‘g‘liga nafaqat o‘g‘illik beradi, balki o‘z davlati, mol-mulki va hokimiyatini ham topshirishga tayyor ekanini aytadi. Bu Ahmadbekning saxiy va keng ko‘ngilli ekanini bildiradi.

– Ziyofatda yig‘ilgan odamlar uning o‘zlarini hurmat bilan qabul qiladi va hammasi turib tabriklaydi. Bu Ahmadbekning el orasida obro‘ e‘tiborli inson ekanini ko‘rsatadi.

– U Go‘ro‘g‘liga ilik uzatib, uni o‘g‘il qilish marosimini bajaradi va qirq kun to‘y qilishni aytadi. Bu uning urf-odatlarini hurmat qilishini bildiradi.

Ahmadbek bir shaharga bormoqchi bo‘lib, yo‘l yarog‘ini qilib jo‘nab ketdi. Buni eshitgan Shirvon yurtining podshosi Rayhon arab Ahmad yo‘qligini eshitib Xoljuvonni olib ketish payiga tushdi. Chunki Rayxon arab ham Xoljuvonga oshiq bo‘lgan edi. Sovchi quyganda Ahmadbek ham sovchi qo‘yib, Rayxonga berdirmay o‘zi olgan edi. Rayxon arab Ahmad sardor yo‘qligidan foydalanib Xoljuvonni olib qochib ketadi. Go‘ro‘g‘li ham bu ishda o‘zini aybdor his qilib ketib qoladi. Ahmadbek uyga qaytganda Go‘ro‘g‘li ham Xoljuvon ham yo‘q bo‘ladi.

*Otga yo‘l bermaydi tog‘da o‘ralar,
Nayza tegsa, oq badanni yaralar.
Olib kenglar Go‘ro‘g‘libek o‘g‘limni
Xotin o‘ldi, qamchi sindi, yoronlar!*

*Bedov mingan o‘rdan qirga chopinar
Olib kenglar Go‘ro‘g‘libek bolamni,
Pulim bo‘lsa, yaxshi xotin topilar.*

*Tovus degan qush taranar qiyada,
Ne ko‘rib kechirdim mana dunyoda,
Olib keling Go‘ro‘g‘libek jonimni,
Xoljuvondan yor topilar ziyoda [Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. Doston, 2021: 130].*

Bu parcha Go‘ro‘g‘li dostonining hissiy jihatdan kuchli epizodlaridan biri bo‘lib, unda ota mehr-muhabbati, qahramonlik va insoniy qadriyatlar yorqin tasvirlangan. Ahmad sardor tutingan o‘g‘lini hatto Xoljuvondandan ustin qo‘yadi. Puli bo‘lsa yaxshi xotin topilishini, ming Xoljuvon Go‘ro‘g‘lining bir gapiga teng kelmasligini aytadi. Ahmad sardor bir o‘rdadan chiqmasdan ancha Go‘ro‘g‘li uchun xafa bo‘lib yotadi. Tinmasdan qo‘l ostidagi yigitlarga Go‘ro‘lini topib kelishlarini so‘raydi. Shuncha yil yashagan xizmatida bo‘lgan yoriga ichi achimasdan faqat tinmasdan Go‘ro‘g‘li qaytishini so‘raydi. Axir uning ayoli or nomusi edi. Shunda ham Ahmad sardor puling bo‘lsa yana shuncha xotin topilishini ammo jigargo‘shasi topilmasligin tinmasdan so‘zlaydi. Bunda sardorning naqadar jigarlariga etiborsiz emasligi, ularga mehri boshqachaligini ko‘rishimiz mumkin.

Rahmatulla shoir Yusuf o‘g‘li variantidagi “Go‘ro‘g‘lining bolaligi” dostoni voqealari ham yuqoridagi Po‘lkan shoir variantida ham keltirilgan. Ammo ba‘zi o‘rinlarida farq qiladi. “Go‘rog‘lining bolaligi” dostonida ham Ahmad sardor Go‘ro‘g‘lini tarbiyasiga oladi. Unga mehribonchiliklar ko‘rsatadi.

Ana endi shuytib, Ahmadbek sardor Go‘ro‘g‘libek jiyanining suyak egasi bo‘lib, uyiga olib borib, xotini Xoljuvonoyga: “Mana bu mening tuqqan jiyanim, Xunxorda tug‘ilib, enasi o‘lib, kelgan. Endi bu biznikida turadi. Senga tayinlaganim shuning aslo-aslo ko‘nglini qoldirmaysan, sira-sira maytarilmasin. Agar buning ko‘nglini qoldirguday o‘lsang, ikkimizning o‘rtamizdagi do‘stlikka g‘ovg‘a qo‘ygan bo‘lasan”, deb tayinlab qo‘ydi. Go‘ro‘g‘libekka ham: “Jiyanim Go‘ro‘g‘li, men bu Tukman yurtida Xunxorga vakil odamman, juda ko‘p ishlayman. Uyda bo‘larimdan bo‘lmasligim ko‘p. Shu yangangning qoshida bo‘lasan. Lekin bilib qo‘yki, Rayhon arab degan bir saman bo‘z otli odam bor. U har zamon har zamonda shu to‘garaklarda ko‘rinib qoladi. O‘sha odamga ko‘z-quloq bo‘lib yur [Go‘ro‘g‘li. Doston, 2006: 42].

Bu parchada Ahmad sardorning xarakteri va voqealardagi o‘rni juda aniq ko‘rinadi. Avvalo, Ahmad sardor Go‘ro‘g‘libekni “jiyanim” deb qabul qilib, unga mehribonlik ko‘rsatadi. Uni uyiga olib kelib, xotini Xoljuvonoyga topshiradi. Bu yerda u Go‘ro‘g‘liga mehribon va himoyachi sifatida namoyon bo‘ladi. Oilaviy mas’uliyatni jiddiy qabul qiladi. Xotiniga aytgan gaplari orqali Ahmad juda qat’iy va talabchan inson kabi ko‘rinadi. U Go‘ro‘g‘lining ko‘nglini og‘ritmaslikni qat’iy buyuradi. Hatto bu ish turmushiga putur yetkazishini ham ta’kidlaydi. Bu esa uning so‘zida turadigan, jiddiy va hukmron xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Ahmadbek Rayhon arab haqida ogohlantiradi. Atrofdagi xavf-xatarni oldindan sezib Go‘ro‘g‘lini ham hushyorlikka o‘rgatadi. Ahmad sardor bu parchada mehribon, lekin qat’iy; dono, lekin ehtiyotkor; mas’uliyatli va hukmron xarakter egasi sifatida tasvirlangan. U Go‘ro‘g‘lining tarbiyasi va xavfsizligiga befarq bo‘lmaydi.

Shuytib, Go‘ro‘g‘libek Ahmad sardornikida juda erka bola bo‘lib o‘sa berdi. “Aytgani o‘rol, olgani halol” edi. Boshqa turkmanlar ham Go‘ro‘g‘libekka Ahmad sardorning jiyanini deb hurmat yuzasidan qarar edi. Boshqaning Go‘ro‘g‘libek bilan, Go‘ro‘g‘libekning boshqa bilan ishi y o‘q. Ola baytali halak, o‘zi halak, har kuni yetaklab yurgani-yurgan edi[Go‘ro‘g‘li. Doston, 2006: 43]. Shunday qilib Go‘ro‘g‘lining bolaligi shu tarzda o‘tadi. Tog‘asining ortidan hurmatga sazovor shaxs bo‘ladi. Farqli jihati Po‘lkan shoir variantida esa bu voqealarda Ahmad sardor Go‘ro‘g‘lini asrab o‘g‘il qilib to‘y tomosha bergani keltirilgan.

Ahmad sardor keyin Go‘ro‘g‘lini jiyanidan bu so‘zlarni eshitib, juda o‘p vaqt indamay, g‘amgin bo‘lib qolib, keyin Go‘ro‘g‘libekka: “Jiyanim, bu gaplarni esingdan chiqarib yuborib, baytalingni boqib, dimog‘ingni choq qilib yura ber. Menga Xoljuvon bo‘lmasa, boshqasi, pulga topiladigan xotin-da” deb dildorlik berdi. Go‘ro‘g‘libek bo‘lsa, picha kattarib: “Bir otli bo‘lib olay, undan keyin ko‘raman”, deb Rayhon arabni sirtidan so‘kib, baytalini minib, bo‘zga chiqib ketdi[Go‘ro‘g‘li. Doston, 2006: 46]. Bu voqea ham Po‘lkan shoir variantida boshqacha tasvirlanadi. Unda Go‘ro‘g‘li ham Ahmad sardorning uyidan qochib ketadi. Ahmad ikkalasidan ham ayrilib ancha vaqt siqilib bir uydin chiqmay yotgani tasvirlanadi. Bu dostonida esa Rayxon arab Xoljuvoni olib ketganini Go‘ro‘g‘lidin eshitadi. Go‘ro‘g‘liga indamasdan bosiqlik bilan bu voqealarni unutishini uqtiradi. Bundan kurishimiz mumkinki Ahmad sardor Go‘ro‘g‘liga nisbatan juda mehribon va rahimdil inson.

Xulosa qilib aytganda dastlabki doston variantlarida Ahmad sardor obrazi saxiy, mehribon, Go‘ro‘g‘lining tutungan otasi, homiysi sifatida gavdalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi/ Aytuvchi: Muhammad Jomurot o‘g‘li Po‘lkan shoir. Yozib oluvchi: Hodi Zarifov. Nashrga tayyorlovchi: Malik Murodov. Qayta nashrga tayyorlovchi, iqtibos va izohlarni kirituvchi: Ergashboy Matyoqubov. – Toshkent: Ilm ziyo zakovat, 2021.
2. Mirzayev T. O‘zbek folklori: janrlar, tarixi va poetikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
3. Турдимов Ш. “Гўрўғли” дostonларининг генезиси ва тадрижий босқичлари. – Тошкент: Фан, 2011.
4. Ходи Зариф ва В.М.Жирмунскийларнинг “Ўзбекский народный героический эпос” китоби.